

**Maxsulotni sotish va xarid qilish va xizmat ko'rsatish**  
**Sh A R T N O M A si № 4**

2022 й. «17» 5

2022-74-5-210-XT-  
COH

G'ozg'on sh.

Ushbu shartnoma bir tomondan Nizom ga asosan ish yurituvchi "OOO N U R GOLDEN FRUITS" (kelgusida «maxsulot yetkazib beruvchi xizmat kursatuvchi» deb ataladi) nomidan raxbar S.Hamroyev va ikkinchi tomondan Nizomga asosan ish yurituvchi G'ozg'on shahar Xalq ta'limi bo'limi (kelgusida «buyurtmachi» deb ataladi) nomidan raxbar A.Qarshiyev bir tomonidan quyidagilar to'g'risida tuzildi:

**Shartnoma predmeti**

1.1 «Maxsulot yetkazib beruvchi xizmat kursatuvchi» maxsulotni ushbu shartnoma shartlari buyicha yetkazib berishga, «buyurtmachi» esa uni qabul qilib olishga majbur.

Maxsulot assortimenti va bahosi (spesifikatsiyasi)

№	Mahsulot xizmat nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Summasi
1	<b>Yuqori sinf o'quvchilari uchun parta</b>	<b>komplekt</b>	<b>200</b>	<b>1 427 777</b>	<b>285 555 400</b>

Shartnomaning umumiy summasi **285 555 400 (Ikki yuz sakson besh million besh yuz ellik besh ming to'rt yuz)** so'mni tashkil etadi.

**2. Baxo va tulov tartibi**

2.1 Maxsulot uchun to'lov pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.2 «Buyurtmachi» shartnoma umumiy summasining 30 %, ya'ni **85 666 620** so'mni avans tariqasida shartnoma to'liq kuchga kirgan kundan boshlab 10 bank ish kuni mobaynida, qolgan qismi, ya'ni **199 888 780** so'mni «maxsulot yetkazib beruvchi» maxsulotni yetkazib bergan kundan boshlab 15 bank ish kuni davomida «maxsulot yetkazib beruvchi»ning bank xisob rakamiga o'tkazib berishi shart.

**3. Maxsulot yetkazib berish muddati va tartibi**

3.1 «Maxsulot yetkazib beruvchi. xizmat ko'rsatuvchi» maxsulotni hisob raqamiga avans mablag'i kelib tushgan kundan boshlab 10 bank ish kunida yetkazib beradi.

3.2 Maxsulot «Maxsulot yetkazib beruvchi. xizmat kursatuvchi» ning transportida tashiladi.

Maxsulot hisob varoq fakturaga imzo qo'yib qabul qilib olingan vaqtdan boshlab «buyurtmachi» mulkiga aylanadi.

**4. Maxsulotni topshirish va kabul kilish**

4.1 «Buyurtmachi» vakolatli shaxsi qabul qilib olish jarayonida maxsulotning ishga yaroqliligini, sifati, miqdori jihatidan shartnomaga mos kelishini tekshirib olishi lozim. Maxsulot tuliq qabul qilib olingandan so'ng maxsulotni saqlash javobgarligi «buyurtmachi» vakolatli shaxsi zimmasiga utadi.

**5. Maxsulot sifati**

5.1 Maxsulot sifati O'zbekiston Respublikasi standarti talablariga javob berishi shart.

5.2 Maxsulot transportda tashib ketish uchun qulay qilib jixozlanishi lozim.

**6. Tomonlarning huquq va majburiyatlari**

6.1 «Buyurtmachi» shartnomaning 2.2 bandida kursatilgan tulovni belgilangan muddatdan kechiktirib yuborgan xolatda, xar bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 %i miqdorida penya to'laydi. Lekin to'langan penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan to'lov summasining 50 %i dan oshib ketmasligi lozim.

6.2 «Maxsulot yetkazib beruvchi. xizmat ko`rsatuvchi» maxsulotni shartnomaning 3.1 bandida kursatilgan muddatda yetkazib bermagan taqdirda, kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan maxsulot qiymatining 0,5 %i miqdorida penya to`laydi. Lekin to`langan penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan mahsulot qiymatining 50 %i dan oshib ketmasligi lozim.

#### **7. Nizolarni xal etish tartibi**

7.1 Nizoli vaziyatlar tomonlarning o`zaro kelishuvi asosida hal etiladi.

7.2 Nizoli vaziyatlar tomonlarning o`zaro kelishuvi asosida hal etilmagan taqdirda Xo`jalik sudi orqali hal etiladi.

#### **8. Shartnomaning amal qilish muddati**

8.1 Shartnoma ikki tomonlama to`liq tasdiqlangandan so`ng kuchga kiradi hamda «31» Dekabr 2022 yilgacha haqiqiy deb hisoblanadi.

#### **9. Fors – major**

9.1 Agarda ushbu shartnoma shartlarini bajarishga xalal beruvchi yengib bo`lmas kuchlar – ombargo, urush e`lon qilinishi, zilzila, suv toshqini, yong`in va boshqa tabiiy ofatlar yoki O`zbekiston Respublikasi tomonidan chiqarilgan alohida qaror va farmoyishlar yuzaga kelsa, u holda tomonlar ushbu yengib bulmas kuchlar ta`siri vaqtida shartnomaviy javobgarlikdan ozod etiladilar.

#### **10. Qo`shimcha shartlar**

10.1 Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega 2 (ikki) nusxada tuziladi hamda tomonlarning har birida 1 (bir) nusxadan saqlanadi. Agar tomonlardan biri uziga tegishli nusxani yo`qotgan taqdirda qolgan nusxaning kseronusxasi haqiqiy deb hisoblanadi.

10.2 Tomonlarning yuridik manzillari yoki bank rekvizitlari o`zgargan taqdirda 3 bank ish kuni davomida bir-birlarini yozma ogohlantirishlari shart.

10.3 Tomonlardan biri ikkinchisining yozma ravishda tasdiqlangan rozilik xatisiz shartnoma buyicha huquq va majburiyatlarni uchinchi shaxs zimmasiga o`tkazolmaydi.

Shartnomaga har kanday qo`shimcha o`zgarishlar yozma ravishda, ikki tomonlama to`liq tasdiqlangandan so`ng haqiqiy hisoblanadi.

#### **11. Taraflarning yuridik manzilgoxlari va to`lov rekvizitlari**

##### **“Ijrochi”**

**OOO N U R GOLDEN FRUITS**

**Manzili:** Nurota t.T.Bozorov ko`chasi 21uy  
1uy

**Tel:** 93-434-07-70

**INN:**306364437 **MFO:** 00196

**H/R:** 20208000005065459001

401722860124127092100075007

##### **“Buyurtmachi”**

**G`ozg`on shahar XTB**

**Manzili:** G`ozg`on sh A.Temur ko`chasi

**Tel:** 93-000-31-27

**INN:**207332526 **MFO:** 00014

**H/R:**

**Raxbar:**

S.Hamroyev

**Bo`lim mudiri:**

A.Qarshiyev

